

O'TKIR HOSHIMOVNING "URUSHNING SO'NGGI QURBONI" ASARIDA QAHRAMONLAR XARAКTERI.

*Usarova Laylo Ibragimovna. O'zbekiston - Finlandiya
pedagogika instituti. Ozbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti.*

*Abdusamatova Shirinmo O'zbekiston - Finlandiya
pedagogika instituti. Ozbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi.*

Annotatsiya: Urushning so'nggi qurboni asari bosh mavzu sifatida urush va uning yomon oqibatlarini ochib berilgan. Ushbu asarda urush barcha insoniyatni sinagani va deyarli, barcha insonlar boshidan o'g'ir kunlar o'tgani shu bir oila misolida ko'rsatib berilgan. Sinovlar shunchalik qattiq bo'lganki, jigarlar bir-birlarining, bolalar ota-onalarining holidan xabar olishmay qo'ygan. Asarda barcha insonlar sharoiti o'g'irligini, asar boshida birgina dasrurxon tasvirida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu asarda barcha insoniyatni hech qachon unutib bo'lmas qora kunlari ochiqdan ochiq ifodalangan. Eng qayg'uli va og'riqli holat farzand o'z onasining qotiliga aylanganligi. Albatta, hech qaysi inson dushmaniga ham bunday kunni ravo ko'rmaydi. Lekin urush insonlarni tasavvuriga siqmagan yomon voqealarni olib keldi.

Kalit so'zlar: O'tkir Hoshimov, hikoya, urush, Shoikrom, qulupnay, Umri xola, badiiy adabiyot, an'ana va qadriyat, milliy g'oyalar, yozuvchi, darlik, ta'lim tizimi..

Bugungi kunda O'tkir Hoshimov asarlari eng o'qishli, eng ommabop kitoblar sifatida xalq orasida qo'lma-qo'l o'qilayotir. Boisi tilining xalqonaligi, qahramonlari va xarakterlarning milliyliigi, voqealarning hayotiyliigi o'quvchilar mehrini qozongan. Uning asarlari urush davri voqealarini ko'rsatadi, muallifning har bir asarida insonparvarlik, mehnatsevarlik aks etirilgan.

O'tkir Hoshimov katta iste'dod egasi edi. Adib - o'ndan ortiq roman va qissa, ko'plab ta'sirchan hikoyalar, bir necha sahna asarlari muallifi. U dastlabki yirik asari bilanoq ulkan adibimiz Abdulla Qahhorning nazariga tushgan, undan «Sof, samimiy, tabiiy, iliq, rohat qilib o'qiladigan asar» yozgani uchun maqto'v olgan yozuvchidir. O'tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgustda Toshkentning Do'mbirobod mahallasida tug'ilgan. O'quvchilik chog'laridayoq ijod bilan shug'ullangan. Dastlabki kitobi esa talabalik yillarida chop etilgan. Adib asarlarining hayotiyliigi, o'quvchiga tez ta'sir etishi uning tarjimai holi bilan bog'liq. Darhaqiqat, yozuvchi yoshligidan ijodiy ishni amaliy mehnat bilan barobar olib borgan. Uning hayot yo'liga diqqat qiladigan bo'lsak, nashriyotda xat tashuvchi, musahhih, muxbir, gazetada bo'lim mudiri, nashriyotda va jurnalda bosh muharrir bo'lib ishlaganini ko'ramiz. Adibning «Urushning so'nggi

qurboni», «Muhabbat» kabi ko'plab hikoyalari, «Odamlar nima derkin?», «Shamollar esaveradi», «Ikki karra ikki - besh», «Bahor qaytmaydi», «Dunyoning ishlari» qissalari, «Nur borki, soya bor», «Ikki eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar» nomli romanlari mamlakatimizda va chet ellarda sevib o'qilmoqda..

Urushning so'nggi qurboni asari bosh mavzu sifatida urush va uning yomon oqibatlarini ochib berilgan. Ushbu asarda urush barcha insoniyatni sinagani va deyarli, barcha insonlar boshidan o'g'ir kunlar o'tgani shu bir oila misolida ko'rsatib berilgan. Sinovlar shunchalik qattiq bo'lganki, jigarlar bir-birlarining, bolalar ota-onalarining holidan xabar olishmay qo'ygan. Asarda barcha insonlar sharoiti o'g'irligini, asar boshida birgina dasrurxon tasvirida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu asarda barcha insoniyatni hech qachon unutib bo'lmas qora kunlari ochiqdan ochiq ifodalangan. Eng qayg'uli va og'riqli holat farzand o'z onasining qotiliga aylanganligi. Albatta, hech qaysi inson dushmaniga ham bunday kunni ravo ko'rmaydi. Lekin urush insonlarni tasavvuriga siqmagani yomon voqealarni olib keldi.

Barchamiz bilamizki, 1941-1945 yillar oralig'ida nafaqat bizning yurtda balki, dunyoning barcha mamlakatlarida og'ir judolik bo'ldi. Bu urush qanchadan qancha insonlarni yostig'ini quritdi, qanchadan qancha bolalarni yetimga aylantirdi, qanchadan qancha yuzlar bu urush yillarida tabassum nimaligini unitdi, hatto qarindoshlar bir-birlaridan yuz o'girishga majbur bo'ldi. Shunday qilib, bu urush insonlarni yetti uxlab tushiga kirmagan falokatlarni dlib keldi. Mashhur o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimov aynan mana shu barcha insonlarning og'riqli nuqtasi bo'lmish, urush mavzusida o'zining mashhur "Urushning so'nggi qurboni" asarini yozdi. Urush haqida o'zbek va jahon adabiyotida misli ko'rilmagan darajada ko'p. she'rlar, romanlar, hikoyalar va qissalar yozilgan. Lekin ularning ichida O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi o'zgacha o'rin tutadi. "Urushning so'nggi qurboni" asarida obrazlar portreti ham o'ziga xosdir. "Urushningso'nggi qurboni" asari bir-biriga o'xshamas xarakterli qahramonlardan tashkil topgan. Barcha obrazlarning o'z tashvishlari, o'y-fikrlari, qiyinchiliklari mavjud. Lekin bu insonlarni barchasini g'am-qayg'ulari ildizida urush yotadi. Baxtdan tabassum qilishdan to'xtamaydigan yuzlarga, qaytib kulishiga izn bermagan, bir kunda qora sochlarni oqartirgan-urush. Bu asar qahramonlari ham urush bo'lishini va guldek oilalariga putur yetishini hech o'ylab ko'rishmagan. Asar boshlanishi ham asarning voqealar rivoji qanday bo'lishi haqida bir oz ma'lumot berilgan. Asarning boshidayoq salbiy holatlar tasvirlangan, barcha narsalar asardagivoqealar rivoji ijobiy ketmasligiga ishora qilardi. Asardagi bosh qahramonlar Shoikrom, Shone'mat, Umri xola va Xadicha. Shoikromoilaning katta farzand bo'ladi. Shone'mat bo'lsa oilaning kichik farzandi ya'ni Shoikromning ukasi bo'ladi. Xadicha Shoikromning xotini Umri xola esa Shoikromning onasi bo'ladi. Shoikromning otasi erta olamdan ko'z yumgan va Shone'matni Shoikrom va Umri xola ikkasi katta

qilishgan. Urush boshlanganda barcha oiladan erkaklarni urushga olib ketishgan. Lekin bu oiladan hech kim urushga bormagan. Shoikromni to'qimachilik kombinatida montyor yetishmasligi sababli olib qolishdi. Shone'mat bo'lsa sil kasaliga chalinganligi sababli urushgajo'natilmadi. Qarangki, urush shuncha uzoqda bo'lsa ham uning sovug'i bu oilaga ham kirmasdan qoladi. Qimmatchilik, qahatchilik sababli xalq och qoldi o'g'rilar ko'paydi. Xattoki, odam o'ldirib uyidagi narsalarini olib chiqib ketadigan odamlar ham paydo bo'ldi. Bu urush qanchadan qancha odamlarni yer qarida olib ketdi va yana qanchadan qancha odamlarni iymonini o'ldirdi. Urush paytida har bir inson o'zini o'ylaganligini shu asar orqali yaqqol ko'ramiz. Shunchalik darajada insonlar imkonsiz qolganki, o'z yaqinlaridan yuz o'girish darjasiga ham borishgan. Bu juda achinarli holat lekin bu ishlar uchun u insonlar ham aybdor emas. Barchasiga urush aybdor-Urush!!!

Urush! Noming o'chsin jahonda,

Hamon bitmas sen slogan alam.

Sen tufayli ko'p xonadonda

Ota nomli buyuk shodlik kam.

Xadicha o'zi qurumsoq bo'lgan urush boshlangan keyin yanada bu hislati oshdi deb tariflangan. Lekin o'ylab qarasak ona bo'lish osonmi uch bolani boqish kerak ayniqsa urush yillarida. Bu asarda Umri xola obrazi orqali yozuvchi barcha xokisor, mehribon onalarni tariflab bergan. Shone'mat o'lishini bilsada bolasi uchun jon-jahdi bilan kurashadi. Uni tuzalib ketishi uchun kim nima desa sinab ko'radi. Umri xolani birdan bir niyati o'g'lini yana sog'lom ko'rish edi. Lekin urush tufayli oziq ovqat tanqis edi. Umri xola o'g'lini tuzalishi uchun Shoikromning xovlisidagi qulupnayni qo'y sutiga almashtira boshlaydi. Oziq-ovqat kam paytda barcha o'z oilasini, bolalarini o'ylaydi. Shoikrom ham ataylab emas, jahl ustida qulupnay ariqchasiga tok simini tashlab qo'yadi. Shoikrom ham shu nasibamizdan ayrilib qolmaylik degan maqsadda bu ishni amalga olishadi. Ming asfuslar bo'lsinki, Shoikrom o'z onasini qotiliga aylanadi. Bu ne ko'rgulik. Eh urush, qanchadan qancha insonlarni hayotiga abadiy zulmatni olib kirdi! O'z jigaridan xabar olmay qo'gan aka-ukalar, o'zlari bilmagan holda ota-onalarini o'lishiga sababchi bo'lgan bolalar, yoki yaqin insonlari ko'z ongida jon bergan insonlar tasvirlangan bu asarda. Abatta, ushbu asar urush haqidagi tasavvurlardan xamir uchidan patir. Aslida bundan ham daxshatli qanchadan qancha voqealar ro'y bergan." Asarda qiyinchilik inson ma'naviyatini sinovdan o'tkazish vositasi ekanligining ko'rsatilganligi. Hikoyada urush yillarining haqqoniy

tasvirlanganligi. Yo'qchilik onani boladanm og'ani inidan sovutganliginining ta'sirchan ifodalanganligi. Asl odam har qanday sharoitda ham ma'naviy pokligicha qolishining tasvirlanganligi. Hikoyadagi Shoikrom, Shone'mat, Hadicha va Umri xola obrazlariga xos xususiyatlarning yorqin aks etganligi".elakdan o'tkazdi. Kimdir bu sinovlardan o'ta olmadi, kimdir bu sinovlardan o'ta oldi.

Xulosa qilib aytganda **O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasining mazmuni.** Urushning so'nggi qurboni asari urush va uning yomon oqibatlarini ochib berilgan. Ushbu asarda urush barcha insoniyatni sinagani va deyarli, barcha insonlar boshidan o'g'ir kunlar o'tgani shu bir oila misolida ko'rsatib berilgan. Sinovlar shunchalik qattiq bo'lganki, jigarlar bir-birlarining, bolalar ota-onalarining holidan xabar olishmay qo'ygan. Asarda barcha insonlar sharoiti o'g'irligini, asar boshida birgina dast urxon tasvirida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shuningdek asar juda mazmunli va ta'sirli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Normatov U. Ijod sehri. -T.: Ma'naviyat, 2006. -289 b.
2. Pospelov A. Vvedenie v literaturavedenii. -M.: Nauka, 1988. -234 b.
3. Rasulov A. Yangi zamon yangi qahramon. -T.: Adabiyot va san'at, 1978.
4. Sarimsoqov B. Badiiyat asoslari va mezonlari.-T: Fan, 2004. -194 b.
5. Uorren O., Uellek R. Teoriya literature. -M.:Progress, 1978. -S.308.